

Tabiatshunoslik darslarida o`quvchilarni ona tabiatni asrashga o`rgatish.

M.Zaripova

Maktabgacha, boshlang`ichva

maxsusta`limkafedrasio`qituvchisi

“Yer, yer osti boyliklari, suv, o`simlik va

Hayvonotdunyosihamdaboshqatabiiy

zahiralarumummilliy, boylikdir, ulardan

oqilona foydalanish zarur va ular davlat

muhofazasidir”

O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining

55-moddasi.

Tunda osmonda oy va yulduzlar ko`rinadi. Kunduzi quyosh nuridan tog` yaylov, o`rmon, cho`llardagi o`simliklar bahramand bo`ladi: Tog`, o`rmon, cho`llarda turli hayvonlar yashaydi. Osmonda har xil qushlar parvoz qiladi. Bazida osmonda bulutlar suzib yuradi. Ayrim kunlari yomg`ir yog`adi. Havo soviganda esa yomg`ir qorga aylanadi. Qor va yomg`ir suvlaridan daryolar hosil bo`ladi. Ko`pgina daryolar o`z suvini ko`l yoki dengizlarga quyadi. Daryo ko`l va dengizlar har xil suv o`tlari va suv hayvonlariga boy. Bularning barchasi tabiatdir.

Kishilar kundalik faoliyatda foydalanadigan gaz, toshko`mir, metallar yer ostidan olinadi. Ular ham tabiatga mansubdir.

Shunday qilib, inson qo`li bilan yaratilgan narsalardan tashqari, atrofimizdagi olam tabiatni tashkil etadi.

Tabiat jonsiz va jonli tabiat unsurlariga bo`linadi. Quyosh, yulduzlar, oy, yer, tosh, tabiiy gaz, bulut, havo suv kabilar jonsiz tabiat unsurlaridir.

Jonli tabiat unsurlariga Yer yuzidagi barcha tabiiy o`simliklar va yavvoyi hayvonlar kiradi. Ular nafas oladi, oziqlanadi, o`zidan ko`payadi va rivojlanadi.

Yer ostidan vulqon otilishi, osmondan bulut hosil bo`lishi, chaqmoq chaqishi, momoqaldiroq gumburlashi, shamol esishi, yomg`ir yog`ishi, Quyoshning nur sochishi, bulbulning sayrash kabi jarayonlar tabiat hodisalaridir.

Mazkur tabiat unsurlari va hodisalarini “Tabiatshunoslik” va tabiatga oid boshqa fanlar o`rganadi.

Hozirgi kunda “Atrofimizdagi olam”, “Tabiatshunoslik” va shunga oid fanlarga tibor kuchaytirildi. Boshlang`ich ta`limda tabiat fanining maqsad va vazifalari bolani tevarak atrofdagi tabiat bilan tanishtirish, undan olam tuzilishi va tabiat hodisalari haqida boshlang`ich tasavvur hosil qilish ilmiy dunyoqarash kurtaklarini shakllantirish, tabiatga muhabbat uyg`otish va undan oqilona foydalanishni o`rgatish tabiat ta`limi sohasi orqali amalga oshiriladi.

Tabiat bo`yicha standart ko`rsatkichlari bolaning tabiat va undagi hodisalar haqidagi tasavvurga ega bo`lish, ularni farqlay olish, qisqacha tavsiflab berish hamda amalda qo`llay olishga o`rgatish nuqtai nazardan belgilanadi.

Boshlang`ich ta`limda tabiat ta`limi mazmunining negizi quyidagilarni o`z ichiga oladi: bizning maktab, bizning mahalla, ko`chada yurish va tabiatda o`zini tutish qoidalari, kun tartibi, shaxsiy gigiyena qoidalari, jonli va jonsiz tabiat, tabiat hodisalari, jism va moddalar, madaniy va yovvoyi o`simlaklar, o`simliklarning organlari, xona o`simliklari, o`simliklardagi mavsumiy o`zgarishlar, madaniy o`simliklarni parvarish qilish kabi belgilar ta`lim mazmunini belgilovchi ko`rsatkichlardir.

Tabiatshunoslik fani 3-4-sinflarda o`rganiladi. 3-sinf uchun dastur quyidagi bo`limlarni o`z ichiga oladi: “Kirish”, “Foydali qazilmalar”, “Tabiatda havo va suv”, “O`simliklar”, “Hayvonot olami”, “Sog`ligimizni asraylik”.

Dastlabki mavzu ona yurt tabiatni yoritib beradi. Shuning uchun 3-sinfda tabiatdagi havo, suv, foydali qazilmalar va tuproq singari jonsiz tabiatni o`rganishlari so`ng atrofdagi o`simliklar va hayvonot dunyosini o`rganish zarur, chunki 3-4-sinflarda o`rganilgan tabiatshunoslik materialini o`rganishdagi mantiqiy izchillikni ta`minlaydi.

4-sinf tabiatshunoslik fanidan quyidagi mavzular o`rganiladi: “Kirish”, “Yer-Quyosh sistemasidagi sayyora”, “Yer yuzi tabiatning xilma-xilligi”, “O`zbekiston xaritasi yonida”, “Vatanimiz bo`ylab sayohat”.

“Kirish” mavzusida, birinchi sinfdan uchinchi sinfgacha olingan “Atrofimizdagi olam” haqidagi bilimlar umumlashtiriladi.

Tabiatshunoslik darslari bunday mavzularni qamrab olganligidan shuni anglash lozimki, har bir o`quvchi tabiatga bee`tibor bo`lmasligi lozim, har qanday katta kichik narsa va hodisalarga e`tiborli bo`lmog`i lozim ekan.

Umuman tabiatshunoslik darslari o`quvchini har tomonlama tarbiyalashga yordam beradi. Tabiatdan tabiiy hodisalardan zavq olish, ijodkorlik ruhida tarbiya oladi. Har qanday elementar voqea hodisalardan ulkan kashfiyotlar kelib chiqishi ham mumkin deya yondoshish va tabiatshunoslik darslarida ilmga chanqoqlikni vujudga keltirish lozim.